

O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: ISLOHOTLAR, NATIJALAR VA MUAMMOLAR TAHLILI

Jonqobilova Muborak Tutkiyevna

**Samarqand viloyati, Payariq tuman 47-
DMTT direktori**

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya, uning islohotlari, amaldagi natijalari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bolalarning barvaqt rivojlanishi, pedagoglarning malakalari va ta'lim muassasalarining samaradorligi oshirilayotgani ko'rsatilgan. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutlari, pedagoglar malakalari va elektron ma'lumotlar xavfsizligi kabi masalalar mavjudligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, raqamli transformatsiya, elektron platforma, bolalar rivojlanishi, pedagoglar malakasi

Abstract

The article analyzes the digital transformation of preschool education in Uzbekistan, including the ongoing reforms, practical outcomes, and existing challenges. The implementation of digital technologies has enhanced early childhood development, improved teachers' qualifications, and increased the efficiency of educational institutions. At the same time, regional infrastructure disparities, teachers' competencies, and data security issues remain significant challenges.

Keywords: preschool education, digital transformation, electronic platform, child development, teacher qualification

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlar bolalarning barvaqt rivojlanishi, ta'lim sohasidagi ravshanlik va samaradorlikni oshirish, hamda ta'lim xizmatlarining sohaslar bo'ylab teng taqsimlanishini ta'minlash maqsadlariga qaratilgan. Jahon ta'lim makonidagi raqamlashtirish tendensiyalariga mos ravishda O'zbekistonda ham maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruvni modernizatsiya qilish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Raqamli transformatsiya — bu faqat texnik vositalarni joriy etish emas, balki ta'lim tizimining barcha jabhalarini, jumladan, bolalarni bog'chaga qabul qilish jarayonini, pedagog kadrlarning malakasini, ta'lim mazmun va usullarini, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mexanizmlarini tubdan o'zgartirish jarayonidir. Mazkur jarayonning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, raqamli yechimlarning joriy etilishi bolalar rivojlanishini monitoring qilish, muassasalar faoliyatini nazorat qilish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda shaffof boshqaruvni ta'minlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda qabul qilingan qator davlat dasturlari va strategik hujjatlar mamlakatda maktabgacha ta'limning qamrovini oshirish, sohaga raqamli platformalarni kiritish va ta'lim

muassasalarini zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlashni nazarda tutdi. Natijada sohada ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq raqamli transformatsiya jarayoni o'z tabiatiga ko'ra bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va qator institutsional, texnik hamda ijtimoiy muammolarni hal etishni talab qiluvchi murakkab tizimdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni raqamli muhitga moslashtirish davlat ta'lim siyosatida ustuvor vazifalardan biriga aylandi. 2017–2024-yillarda qabul qilingan qonunchilik va strategik hujjatlarda raqamlashtirish jarayonlari tizimli ravishda belgilandi. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamli monitoring qilish, bolalarning ro'yxatga olinishi va bog'chaga qabul qilish jarayonlarini elektron shaklga o'tkazish, tarbiyachilarning malakasini oshirishda multimedia texnologiyalardan foydalanish kabi yo'nalishlar amaliy qo'llanmoqda.

Ta'lim muassasalarini elektron ma'lumot tizimlari bilan ta'minlash orqali statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni sezilarli darajada takomillashdi. Sektorning boshqaruv darajasida “Bolalar bog'chasi” kabi elektron platformalar joriy etilmoqda. Bu esa qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarni tezkor olish, monitoringni kuchaytirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli platforma orqali bolalar rivojlanishini baholashning elektron vositalari joriy etilmoqda, bu esa individual yondashuv va bolaning kognitiv rivojlanishini kuzatish imkonini berish bilan ahamiyatlidir.

Pedagoglar malakasini oshirish sohasida ham raqamli texnologiyalarni tadbiq etish kuchaygan. Mintaqaviy o'quv markazlari tarbiyachilar uchun onlayn kurslar, seminarlar va interaktiv darslar taklif qilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda.

Maktabgacha ta'limni raqamlashtirishning amaliy natijalarini quyidagicha ifodalash mumkin. Raqamli transformatsiyaning amaliy natijalari bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda.

Birinchidan, bolalarni bog'chaga qabul qilish jarayonida shaffoflik va tezkorlik oshdi. Ota-onalar elektron ariza, navbat va joy taqsimoti haqidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda olishlari, hujjat ayirboshlashda ortiqcha sarsonlikka barham berilgani faoliyat samaradorligini oshirdi.

Ikkinchidan, raqamli ma'lumotlar bazasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining holati, bolalar rivojlanishi, pedagoglar malakasi va hududiy ta'lim qamrovi haqida real statistik tasavvur hosil qilish imkonini berdi. Bunday tezkor ma'lumotlar tahlili ta'lim strategiyalarini belgilashda aniq va ilmiy yondashuvni ta'minlaydi.

Uchinchidan, ta'lim mazmuniga multimedia va interaktiv platformalarning kiritilishi bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy vizual va audiovizual materiallar bolalarning diqqatini jalb etish, o'yin orqali o'rgatish va qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayrim bog'chalarda elektron rivojlanish kartalari joriy etilib, bolalarning individual tajribasini baholash va kuzatib borish imkoni yaratilgan.

To'rtinchidan, raqamli platforma orqali ota-onalar bilan muloqot va o'zaro hamkorlik yaxshilandi. Elektron kundaliklar, bolalar rivojlanishi to'g'risidagi hisobotlar, onlayn maslahat xizmatlari ota-onalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroqini kuchaytirdi. Bu esa tarbiya jarayonida ota-ona va pedagog hamkorligini yuqori darajada tizimlashtirishga xizmat qilmoqda.

O'tkazilayotgan islohotlarga qaramay, raqamlashtirish jarayonida bir qator muammo va cheklovlar mavjudligini ta'kidlash zarur. Birinchi

Ikkinchidan, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasi har doim ham talab darajasida emas. Ayrim tarbiyachilarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligi ta'lim mazmunini to'liq raqamlashtirishni sekinlashtirmoqda. Shu bois pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Uchinchidan, elektron ma'lumotlar bazasidagi axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi islohotlarning muhim, ammo hali to'liq yechilmagan masalalaridan biridir. Bolalar va ota-onalarga oid ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya darajasini ta'minlashda xalqaro talablarga mos mexanizmlar takomillashtirilishi talab etiladi.

To'rtinchidan, raqamli materiallar va platformalardan foydalanish uchun yagona standartlarning mavjud emasligi ayrim tarmoqlarda tartibsizlik keltirib chiqaradi. Bu esa raqamli muhitda ta'lim sifati va mazmunini baholashda qiyinchilik tug'diradi. Mavjud muammolarga qaramay, maktabgacha ta'limni raqamlashtirish sohasidagi islohotlar tizimni takomillashtirishda katta istiqbollarni vada qiladi. Interaktiv resurslarni yanada kengaytirish, individual rivojlanish kartalarini barcha muassasalarda joriy etish, pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish orqali maktabgacha ta'limning sifat ko'rsatkichlari yanada yaxshilanishi kutilmoqda. Raqamli transformatsiyaning to'liq amalga oshirilishi mamlakatda barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratish, ta'lim sifatini nazorat qilish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish va ta'lim muassasalarining samaradorligini oshirish kabi vazifalarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya mamlakat ta'lim tizimida tubdan yangilanish va modernizatsiya jarayonining muhim qismiga aylandi. Islohotlar bolalarning barvaqt rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, pedagoglarning malakasini oshirish, ta'lim muassasalarini zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan monitoring, elektron ma'lumot bazalari va interaktiv ta'lim materiallari maktabgacha ta'lim sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi infratuzilma tafovutlari, pedagoglar malakasining yetarli darajada emasligi, ma'lumotlar xavfsizligi va standartlashtirilmagan raqamli resurslar kabi masalalar hal qilinishi zarur.

Natijada, raqamli transformatsiya maktabgacha ta'limda samarali boshqaruv, individual yondashuv va innovatsion pedagogik usullarni joriy etish imkonini bermoqda. Bu jarayonning to'liq amalga oshirilishi mamlakatda barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim sifatini nazorat qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 595-sonli Qonuni – 2019-yil 16-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni – 2020-yil 23-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.
4. Shin A.V. Perspektivny razvitiya sistema doskolnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. //Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi – Toshkent., – 2020. – № 2. – C.2-6.

5. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. National Center for Family & Community Connections with Schools.

6. Valiyeva. F.R. Teoreticheskiye osnovy i evolyutsiya sistema kpi v upravleniya chelovecheskimi resursami. "Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to'plami 1-qismi (2024-yil 23-24-may) – T.: Science and Innovation, 2024.

7. Valiyeva F.R., Sharipova G. N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/intjecse/v14i5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022

8. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference, Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet